

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini
gumanizatsiyalash masalalari 218

I.A.Asatulloev

Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili 223

D.Sh.Sagdullayeva

Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari 228

S.S.Sodiqov

Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari 234

I.A.Hamdamov

Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi 240

H.X.Xakimov

Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов

Узбекистана в период первого ренессанса 245

Q.H.Boymirzayev

Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi
ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni 252

B.M.Qandov, N.A.Abduveita

Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari 256

E.T.Qalqanov

Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 261

Sh.X.Tog'ayev

Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning
manbalari va vositalari 266

I.A.Ikramov

Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi 272

V.B.Zayniddinova

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi 277

J.M.Miraxmedov

Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili 281

B.X.Mirzaraximov

O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining
ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari 285

D.E.Normatova

Ekzistensializm – hayot falsafasi 293

SIYOSAT**I.A.Raximov**

"Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos
mexanizmlari" 297

M.H.Rustamaliyev

Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi 302

N.B.Dexkanov

Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni 306

M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev

Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi 312

J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish 323

J.K.Yusubov, D.A.Xusanova

Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining
muhim omili 327

TARIX**A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan
(XIX asr oxiri XX asr boshlari) 331



УО'К: 316.334:39(548.1)

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA O'ZBEK XALQI MILLIY G'URURINI
SHAKLLANTIRISHNING MANBALARI VA VOSITALARI**

**ИСТОЧНИКИ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ
УЗБЕКСКОГО НАРОДА В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗИРУЮЩЕГОСЯ УЗБЕКИСТАНА**

**SOURCES AND MEANS OF FORMING THE NATIONAL PRIDE OF THE UZBEK PEOPLE
IN THE CONDITIONS OF MODERNIZING UZBEKISTAN**

Tog'ayev Shavkat Xurramovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, istiqlol yillari xalqimiz milliy g'ururini tiklab, rivojlanish jamiyatimizni ma'nnaviy jihatdan yangilab, yuksaltirishning asosiy vazifasi ekanligi ochib berilgan. Biz Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'nnaviy-ma'rifiy jahbalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anglaymiz. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda xalqimiz milliy g'ururini tiklab, yuksaltirishga doir nazariy va amaliy masalalarni ilmiy o'rganishning dolzarbliги ushbu maqolada tadqiq qilingan.

Аннотация

В данной статье раскрывается, что годы независимости являются основной задачей восстановления национальной гордости нашего народа, обновления и духовного совершенствования нашего общества. Мы хорошо понимаем, что на современном этапе развития Нового Узбекистана, наряду с социальными, экономическими и политическими факторами, важны также реформы, реализуемые в духовном и образовательном аспектах. С этой точки зрения в данной статье исследуется актуальность научного изучения теоретических и практических вопросов, связанных с восстановлением и воспитанием национальной гордости нашего народа сегодня.

Abstract

This article reveals that the years of independence are the main task of restoring the national pride of our people, renewal and spiritual improvement of our society. We understand well that at the present stage of development of New Uzbekistan, along with social, economic and political factors, reforms implemented in the spiritual and educational aspects are also important. From this point of view, this article explores the relevance of the scientific study of theoretical and practical issues related to the restoration and education of the national pride of our people today.

Kalit so'zlar: g'oya, inson, millat, ma'nnaviyat, jamiyat, mustaqillik, Yangi O'zbekiston, vatanparvarlik, fuqorolik g'ururi, milliy istiqlol, milliy madaniyat, madaniy meros, milliy g'urur.

Ключевые слова: идея, человек, нация, духовность, общество, независимость, Новый Узбекистан, патриотизм, гражданская гордость, национальная независимость, национальная культура, культурное наследие, национальная гордость.

Key words: idea, person, nation, spirituality, society, independence, New Uzbekistan, patriotism, civic pride, national independence, national culture, cultural heritage, national pride.

KIRISH

Ma'lumki, yaqin o'tmishimizda hukm surgan mustabid tuzum davrida millat va milliylikka daxldor turli muammo-masalalar, milliy g'urur singari ko'pgina tushunchalar haqida bemaolol so'z yuritish, fanimizda ilmiy tadqiq qilish «taqiqlangan» edi. Bunday tushunchalar xususida erkin fikrlarni aytish, obyektiv ilmiy tahlil va talqin etish imkoniyati faqat mustaqillik sharofati bilan yuzaga keldi. Shuning uchun «Milliy g'urur» tushunchasining mazmun-mohiyati, tuzilishi, vazifalari va o'ziga xos boshqa jihatlarini, xususan, uning ijtimoiy hodisa sifatida shakllanib, rivojlanish qonuniyatlarini har tomonlama chuqur ilmiy tadqiq etish fanimiz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy falsafiy fikrlar rivojida milliy ma'nnaviy xususiyatlar, ularning shakllanib, rivojlanish xarakteri, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri masalasi turli fan sohalaridagi olimlar tomonidan muhim nazariy va amaliy muammo sifatida o'rganilgan.

FALSAFA

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz milliy g'ururini tiklab, rivojlantirish tarixiy zaruratga aylandi. Bu vazifa jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotini yangilash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamlı ishlarning asosiy yo'naliishi bo'lib qoldi. «Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga etish mumkin»[1, 298]. Shu nuqtai nazaridan, O'zbekiston mustaqilligi sharoitida o'zbek xalqi milliy g'ururini yangi bosqichlarda shakllantirib, rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy yo'l-yo'riqlari quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. O'tmish madaniy merosni, milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklab, rivojlantirish va shu asosda, xalqimiz milliy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish;

2. Mayjud ta'lim-tarbiya tizimi va ijtimoiy-madaniy tuzilmalar faoliyatini mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti talablariga mos ravishda tashkil etib, ilg'or umuminsoniy qadriyatlarni, jahon xalqlari madaniyati hamda ilm-fani yutuqlarini keng o'rganib, o'zlashtirish.

Bu omillarning birinchisi xalqimiz milliy g'ururining shakllanib, rivojlanishining asosmanbalarini, ikkinchisi esa, usul-vositalarini o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИI VA METODOLOGIYA

O'zbek xalqi milliy g'ururining shakllanib, rivojlanishi masalalariga oid tadqiqotlar va adabiyotlar ichida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari alohida o'r'in tutadi. Mazkur asarlarda o'zbek xalqi milliy g'ururini O'zbekistonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti va jamiyatimizning ma'naviy-madaniy yangilash jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllantirib, yuksaltirishning g'oyaviy-konseptual asoslari va amaliy yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan.

Keyingi yillarda muammoning yangi jamiyat qurilishi va komil insonni shakllantirish bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etishda respublikamiz olimlari sezilarli yutuqlarga erishib, ushbu mavzuni yoritishga katta hissa qo'shamoqdalar. Ularning o'rgangan tadqiqot mavzulariga qarab, muayyan guruahlarga bo'lib qayd etish mumkin. Chunonchi, jamiyat ijtimoiy-madaniy hayoti rivojlanishining umumiyl qonuniyatlari va milliy ma'naviy xususiyatlarning shakllanib, rivojlanish xarakteri, madaniy merosning millat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati hamda ularning o'zar munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar tahlil etilganda, taniqli olimlardan J.Tulenov, M.Xayrullayev, S.Shermuhammedov, E.Yusupov, S.Mamashokirov, S.Otamuradov, M.Bekmurodov, A.Jalolov, I.Jabborov, M.Imomnazarov, Q.Nazarov, Z.G'afurov, I.Saifnazarov, F.Sulaymonova, M.Xolmatova, Q.Xonazarov, D.Norqulov, A.Erkaev, X.Alimov[3] va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ularning asarlarida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, moddiy va ma'naviy madaniyati, millat va shaxs, umuminsoniylik va milliylik munosabatlari, inson va uning o'zligini anglash muammolari keng tahlil etiladi. Ayni paytda T.Qurbanov, D.Azimova, J.Jabborov, K.Mir'azamov, G'.Najimov, N.Rahimboboyeva, A.Yunusov, P.Qulmatov va boshqalar tomonidan yozilib, himoya qilingan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari xususida ham yuqorida fikrlarni aytish mumkin[3]. Ushbu olimlarimizning o'zbek xalqi milliy g'ururi va uning shakllanib, rivojlanishiga doir qarashlari ularning tanlagan tadqiqot mavzulari yo'naliishlaridan kelib chiqqan: bu muammoga tegishli fikrlari, keng ma'noda, milliy g'ururni shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga qaratilgan.

NATIJALAR

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bugungi O'zbekiston hududida turli davrlarda o'ziga xos sivilizatsiyalar vujudga kelgan. Ushbu o'lka fan va madaniyat markazi sifatida butun dunyoga dong taratgan, bu erda hayratomuz go'zallikka ega shaharlar barpo etilgan, buyuk shoirlar va allomalar yashab ijod qilgan. Buyuk ilmiy kashfiyotlar, adabiyot va san'at, xalq og'zaki ijodining o'lmas obidalari shu maskanda yaratilgan. Bu noyob milliy, tarixiy-madaniy meros, haqli ravishda butun insoniyat xazinasi bo'lib, ayni paytda xalqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasidan dalolat beradi» [5]. Shuning uchun ham, turli tarixiy davrlarda dunyodagi har xil olim-mutaxassislar o'tmish merosimizni o'rganishga katta qiziqish bilan qarashgan. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu jarayon yanada kuchaymoqda. Shu tariqa tariximiz, milliy madaniyatimiz turlicha nuqtai nazarlardan turib, har xil talqin qilingan ko'plab manbalar yuzaga kelgan. Biroq, mutaxassislarning e'tirof etishlaricha, bu manbalarda xalqimizning o'tmishi (qolaversa, buguni ham) va madaniyati hamisha ham to'liq yoritilib, ob'ektiv baholanmagan. Ya'ni, butun Sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi madaniy taraqqiyotini kamsitib, erga urgan «Ovrupamarkazchilar» ham, Sharq madaniyatini ma'lum ma'noda ideallashtirgan «Osiyomarkazchilar» ham, shuningdek, dunyoning turli

joylarida muayyan maqsad-muddaolarni ko'zlab tariximizni yozgan boshqa ayrim olimlar ham, yoki o'tmishimizni soxtalashtirgan mustamlakachi sho'rolar zamonidagi fanlar ham milliy madaniy-ma'naviy merosimizni to'liq va to'g'ri yoritmagan. Shu bois, istiqlol yillari haqiqiy tariximiz va boy madaniy merosimizni, qanday bo'lsa shundayligicha, to'la tiklash davlatimiz siyosatining asosiy yo'naliishiga aylandi. Zero, boy o'tmish madaniy meros va milliy ma'naviy qadriyatlar xalqimiz milliy g'ururining shakllanib, rivojlanishining eng muhim manbaidir.

Ma'naviy qadriyatlarning barcha shakllari u yoki bu darajada, albatta, milliy qadriyatlar bilan bog'liq. Milliy qadriyatlar millat, milliylik negizida shakllanib, o'z navbatida, inson, millat, jamiyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, mamlakatimizda «qadriyatshunoslik» fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan faylasuf olimlardan Q.Nazarov yozganidek, «Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini muttasil vujudga keltirib turadi, o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib, yangi-yangi qirralarini shakllantirib turadi, ikkinchi tomondan esa, uning o'zi ham mavjud qadriyatlar tizimi ta'siri ostida o'zgarib va rivojlanib boradi»[4, 59]. Binobarin, xalqimiz milliy g'ururining shakllanib, rivojlanishida milliy qadriyatlar muhim o'rinn tutadi.

Binobarin, mustamlakachilik sharoitida yurtimizdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy inqirozlar jarayonida milliy madaniyatimizni, milliy o'zligimizni saqlab qolishga xizmat qilgan ba'zi ilmiy, amaliy ishlardan bundan buyon ham samarali foydalanish mumkin.

O'zbek xalqining o'tmish madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarining tiklanib, milliy g'ururining o'sishi jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarning asosidir. Bu jarayon ko'p jihatdan kishilarimizning ma'naviy kamoloti darajasi bilan bog'liq. Zero, yuksak ma'naviyatga, boy madaniy merosga ega bo'lgan xalqda milliy g'urur to'g'ri va yuqori darajada shakllanadi. Milliy madaniy merosni, ma'naviy qadriyatlarni to'la anglab, o'zlashtiribgina milliy g'ururli komil inson bo'lib shakllanish mumkin. Shuning uchun ham mustaqillik sharoitida o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllanib rivojlanishining ijtimoiy-ma'naviy asos - manbalarini, uning nazariy va amaliy muammolarini chuqur o'rganish juda muhim ahamiyatga ega.

Milliy g'ururning shakllanish manbalarini aniq tarixiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda olib o'rganish zarur. Chunki uning rivojlanish bosqichlari va darajalari har bir konkret davrlarning o'ziga xos ijtimoiy ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Milliy g'urur ham insonlardi boshqa ruhiy-ma'naviy xususiyatlar kabi tug'ma - irsiy hodisa emas. U, insonlarga xos fazilat sifatida, millat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllanadi. Kishida milliy g'urur yuqori darajada shakllangandagina barkamol inson bo'lib etishishi mumkin. Shu boisdan ham milliy g'urur milliy kamolotning asosiy belgisi hisoblanadi.

Milliy g'ururning shakllanib, rivojlanishi millat ma'naviy taraqqiyotining darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni, yuksak milliy g'urur barkamol milliy ong va madaniyatning mahsuli sifatida yuzaga keladi. Milliy g'urur, o'z navbatida, jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Binobarin, xalqimiz milliy g'ururining rivojlanishi bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik, dialektik aloqadorlik mavjud. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishi faqat moddiy-iqtisodiy imkoniyatlargagina bog'liq emas. Mamlakatni, millat va jamiyatni ham moddiy, ham ma'naviy jihatlardan rivojlantirib, yuksaltiradigan kuch - milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan milliy g'ururli komil insonladir.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida mamlakatda yashayotgan xalqlarning, xususan, o'zbek xalqi milliy g'ururining rivojlanishi uchun cheksiz imkoniyatlarni mavjud. Millat, jamiyat hayotidagi erkinlik, davlat siyosatining insonparvarligi, hokimiyatning adolatli, xalqqa yaqinligi (xalqparvarligi), xalqning ona-vatanga, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqati, buyuk kelajakka ishonchi, yuksak madaniyat va ma'rifatga intilishi - fuqarolarimizda milliy g'ururli komil inson shaxsining shakllanib, rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi.

Ko'p millatli yangi O'zbekiston davlatining yuksak taraqqiyot bosqichlariga erishishidan bu yerda yashayotgan kishilarning hammasi manfaatdordir. Shuning uchun mamlakatimizning ham moddiy-iqtisodiy, ham ruhiy-ma'naviy jihatdan qanday rivojlanishini shu erni vatan qilgan barcha xalq va etnik birliklarning, xususan, o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifiy darajasi, intellektual salohiyati belgilaydi. Ya'ni, O'zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyoti, ko'p jihatdan, o'zbek xalqining ma'naviy intellektual salohiyatiga bog'liq. Bunga esa, avvalo, milliy ma'naviy-madaniy merosni, yuksak umuminsoniy qadriyatlarni, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlarini chuqur o'rganib - o'zlashtirish orqali, yangi qadriyatlarni yaratibgina erishish mumkin.

FALSAFA

MUHOKAMA

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida xalqimiz milliy g'ururining shakllanib, rivojlanishida ona tilimiz bilan bog'liq og'zaki va yozma ijodiyotimiz namunalari ham katta o'r'in tutadi.

Ayni vaqlarda, xalqimiz hayotida qadimiy ildizlarga va o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan teatr hamda zamonaviy kino san'atlari yangi bosqichlarda rivojlanib bormoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi mavjud turli xil va darajalardagi teatrlar faoliyatida tubdan o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda haqiqiy ma'naviy-madaniy maskanlarga aylangan teatrlarimiz eski tuzim asoratlaridan xalos bo'lib, o'tmish merosimizni tiklash, kishilarimizda yangicha dunyoqarashni shakllantirish, xalqimiz milliy g'ururini o'stirish ishiga katta hissa qo'shmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, kino sohasida ham jiddiy o'zgarishlar qilinmoqda. Kinolarimizda xalqimizning o'tmishdagi va bugungi hayotini tasvirlashda, mustamlakachilik kirdikorlarini hamda milliy istiqlolning mohiyatini ochib berishda sezilarli ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, kinochilarimiz tomonidan so'ngi yillarda yaratilgan bir qancha hujjatli va badiiy filmlar xalqimizga manzur bo'lmoqda.

Darhaqiqat, kino san'ati o'zining g'oyaviy-tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatlariga ko'ra, san'atlar ichida eng katta kuchga ega, hatto oddiygina "multfilm"da ham muayyan g'oyani muvaffaqiyat bilan targ'ib qilish mumkin. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 3-avgustda O'zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvida ta'kidlaganidek: "Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug'lamoqchi, shu asosda o'zbek nomini, O'zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san'ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san'ati orqali jahon ekranlarini zabit etishimiz, shu yo'l bilan dunyo ahlining diqqat-e'tiborini qozonishimiz mumkin"[5, 192-193].

Ammo, to'g'risini aytganda, xalqimiz milliy g'ururini yuksaltirishda katta xizmat qila olishi mumkin bo'lgan kinofilmlar uchun nihoyatda ko'p mavzu va materiallar mavjud bo'lgan bizning sharoitda, kinochilarimiz ushbu san'atning barcha imkoniyatlarini to'la ishga sola olmayaptilar. Kinolarning umumiyligi savyasini oshirishda zamon talablaridan orqada qolmoqdalar. Xususan, bu hol bizda yaratilayotgan kinolarning jahon kinosi maydonlarida yuqori o'rnlarga chiqolmayotganligida yaqqol ko'rinoqda.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash asosiy maqsadlardan etib belgilangan. Bunda:

"Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash. Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish. Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish"[7].

Bugungi kunda ushbu hujjatlar doirasida kishilar ongida yangicha dunyoqarash, yangicha fikrlash g'oyasi shakllanib, milliy taraqqiyotning yangi bosqichga ko'tarilayotgan sharoitda o'zligini anglab, kelajak avlodlar hayotiga mustahkam poydevor yaratish orzusida yashayotganliklari quvonarlidir. Baynalmilal mavqeda turib o'zligini anglash, milliy-madaniy an'analarni xalq orasida targ'ib qilib, yangicha yashash va ishlashga jalb etish, **ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini ruyobga chiqarish, bunda ushbu g'oyani keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va buniyodkorlikni umummiliy harakatga aylantirish** – bu tabiiy ravishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan konseptual g'oyalar asosida jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotiga, jumladan millatlararo munosabatlar takomillashuvi hamda milliy g'ururning yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mamlakat va millat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Umuman, mustaqil O'zbekistonda amal qilayotgan millatlararo munosabatlarni namunali yo'lga qo'yilgan, deyish mumkin. Zero, har qanday mamlakatda yashayotgan kishilar

vatanparvarlikni o'z milliy manfaatlari bilan bog'liq holda tushunishadi. Ya'ni, masalan, mamlakatimizda turmush kechirayotgan har bir millat vakillari o'zlarining milliy taraqqiyotlari mana shu yurt, mana shu davlat ravnaqiga bog'liq deb bilishsagina, ularda O'zbekistonga nisbatan yuksak vatanparvarlik hissi va fuqarolik g'ururi shakllangan, deyish mumkin. Vatanparvarlik va fuqorolik g'ururining haqiqiy mezoni ham ana shudir. Biz hayotimizning turli jahbalarida, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirib, yangilanish sari borar ekanmiz, ushbu islohotlarning turmush tarzimizni ijobiy tomonga o'zgartirishi, ma'naviy yuksalishimizga ko'mak berishi hamda milliy g'urur va iftixorimizni kuchaytirishi ko'p jihatdan har tomonlama etuk kadrlarga bog'liq ekanini unutmasligimiz lozim. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik yillari xalqimiz va mamlakatimiz taraqqiyoti talablariga mos kadrlar tayyorlash borasidagi salmoqli ishlar, xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning tashabbusi va bevosita rahbarligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimiz milliy g'ururining shakllanib, rivojlanishida, hech shubhasiz, hal qiluvchi omillardandir.

Shuningdek, jamiyatimizda ro'y berayotgan milliy tiklanish, ma'naviy yuksalish jarayonlari hamda millatimizning madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy kamoloti xalqimiz hayotida muhim o'r'in tutuvchi diniy merosimizning tiklanishi bilan ham bog'liq. Zotan, kishilarimizda barcha milliy xususiyatlar: milliy ong, dunyoqarash, madaniyat va milliy g'ururning shakllanishida muqaddas islom dini qadriyatları muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Xullas, ma'naviy-madaniy, falsafiy merosimizga munosabatlar xususidagi bunday misollarni yana juda ko'p keltirish mumkin. Ammo mana shu ikki misolda ham ko'rindiki, dunyo fanida bizning o'tmish merosimizni tahlil qilib baholashda, qanday maqsad-muddaolarga yoki qanchalik obyektiv ilmiy dalillarga asoslanganlikdan qat'iy nazar, endi bemalol aytish mumkinki, dunyodagi aksariyat olimlar bizning o'tmish allomalarimizning inson, olam hamda ilm-fan va tafakkur mohiyati xususidagi tom ma'nodagi to'g'ri, obyektiv falsafiy qarashlarini inkor qilib, fanlarda o'zlarining turli konsepsiyalarini joriy qilish bilan, nafaqat Sharq tafakkur madaniyati va falsafasining tub asoslariga putur etkazishgan, shu bilan birga, butun insoniyat ijtimoiy-falsafiy tafakkuri va ma'naviy-madaniy taraqqiyotini noto'g'ri yo'nalishga solib yuborgan. Buni keyingi asrlarda g'arb va evropadagi ma'naviyat borasida yuz berayotgan taraqqiyot va muammolar isbotlab bermoqda. Shu bois, g'arb ma'naviy taraqqiyoti jarayonlaridagi ziddiyatlarning tub asos - sabablarini qidirayotgan u yerlardagi mutafakkirlar, ba'zan, «Taraqqiyot qanchalik yuksalgani sari madaniyat shunchalik tubanlashadi» (Blok), degan tahlikali xulosalar chiqarmoqda. Shu tariqa, Sharq mutafakkirlarining bejizga «xurofotga botib», «olamni o'zgartirishga harakat qilmaganliklari» naqadar to'g'ri ekanligi ayon bo'lmoqda. Zero, millatlarning ijtimoiy hayotida hamisha yaxshilik va ezguliklar ustuvor bo'lishi yoki bo'lmasligini, insoniyat hayoti inqirozga qarab ketmasligini ana shunday masalalarda qanday yo'l tutish hal qiladi.

Xulosa qilib aytganda, shu paytgacha dunyodagi xalqlarning ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojini o'rganishga bag'ishlangan turli-tuman adabiyotlarni, manbalarni kuzatib, shunga ishonch hosil qilish mumkinki, xususan, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy ma'naviy qadriyatları, adabiyoti va falsafiy fikrlari rivoji hech bir davrda etaricha, to'g'ri, obyektiv tahlil qilinib, qanday bo'lsa shundayligicha to'liq yoritilmagan. Shuning uchun:

1. Endi biz o'tmish ma'naviy-madaniy merosimizni yangicha ilmiy tamoyillar, ruhiy ma'naviy nuqtai nazarlar asosida o'rganishimiz lozim. Ana shu tariqa yuzaga kelgan o'tmish ma'naviy-madaniy merosimiz haqidagi nazariy bilimlar millatimizning hozirgi va kelgusi taraqqiyotining amaliy masalalari bilan bog'lanib, faoliyatimizning asosi bo'lgandagina, albatta, aniq va samarali natijalarga erishishimiz mumkin - muqarrar.

2. Xalqimiz hayotida, ong-u tafakkurida uzoq yillar hukmronlik qilgan mustamlakachilikning mohiyatini teran va keng tushunib olish zarur. Chunki bizning nazarimizda, bu boradagi amalga oshirilayotgan ishlarda, ba'zan, ko'proq siyosatparastlik, yuzakichilik ustuvorlik qilayotgan hollar kuzatilmoqda. Shunisi aniqki, mustamlakachilikning mohiyatini har jihatdan to'la anglab etmasdan turib, uning ma'naviy-madaniy merosimizda qoldirgan salbiy asoratlarini tugatishga, xalqimiz ongi, tafakkuridagi tub ijobiy siljishlarga, binobarin, milliy g'ururimizni yuksaltirishga, umuman, kelgusi taraqqiyotimiz yo'lidagi ulkan va ezgu maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

3. Ma'lumki, O'zbekiston zaminida tarixan yuzaga kelgan ulkan madaniy meros umuminsoniyat madaniyati taraqqiyoti bilan birga, uning ajralmas bo'lagi sifatida shakllanib, rivojlangan. Ammo shu bilan birga, bu meros o'ziga xos xususiyatlarga, betakror ko'rinishlarga ham

FALSAFA

ega bo'lib, yaqinlargacha uning yaxlit dunyo madaniyatidagi o'rni o'z nufuzi darajasida e'tirof etilmas edi. Shuning uchun, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yuksak rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ushbu madaniy merosni, avvalo, ana shu o'ziga xos tomonlarini keng taraqqiy ettirib, uning umumjahon madaniyatidagi mavqeyini tiklash, bu boradagi eng muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022. – B.298.
2. Mirziyoyev Sh. Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. Xalq so'zi, 2023-yil 6-mart.
3. Tog'aev Sh.X. Milliy g'urumi shakllantirishning ma'nnaviy-madaniy asoslari. (Monografiya) – Toshkent: "Ilm ziyo zakovat", 2023. – 174 b.
4. Nazarov Q. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: "Ma'nnaviyat", 1998. –B.59.
5. Miziyyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. -B.192-193.
6. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. -B.276.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. // Yangi O'zbekiston, 2022-yil 1-fevral.
8. Farhod Ibrohimov. (2022) [Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'nnaviy va axloqiy qarashlari xususida](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Volume 5, Issue 28. – pp. 174-180.
9. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2023). [The essence of universal human values and their influence on changes in the spiritual life of youth](#). Open Access Repository. – pp.796-803.
10. Ibrokhimov F.A. (2023) [Improving Youth Law Culture Based on the Cluster System and Modern Pedagogical Approaches](#). Miasto Przyszlosci, Volume 41. – pp. 1-4.
11. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2023) [Socio-Theoretical Foundations of Educational Reforms in the New Uzbekistan // International Journal of Human Computing Studies](#). Volume: 05, Issue: 03. Mar 2023. – pp. 62-68.
12. Kandov B.M. (2023) The negative impact of social networks on the spirituality of young people in the context of globalization // **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Volume 4, Issue 3. – pp. 780-789.
13. Ibrokhimov F.A. (2023) [Din va huquq](#). Academic research in educational sciences, №1. – pp. 814-816.
14. Ibrokhimov F.A. (2023) [Modern pedagogical approaches in legal education](#). GOLDEN BRAIN. Volume 1, Issue 32. – pp. 174-180.